Интерпретация биологических терминов на русском языке	570
Абдуллаева Нигора Курбановна	
Жанровые особенности рассказа-антиутопии В. С. Маканина "Однодневная война".....	574
Дмитрий Валерьевич Пупонин	
Мифопоэтика и аксиологические функции архетипа матери-хранительницы в повестях В. Г. Распутина "Последний срок" и "Прощание с матёрой"	578
Коржова Шахло Одилжоновна	
Методологические аспекты изучения адаптаций Песчанковых (Gerbillidae) к аридным условиям: анализ классических и современных исследований	585
Нурова Хикоят Кенжаевна	
К вопросу о руководстве самостоятельной работой студентов при изучении иностранных языков	590
Рахимова Мухайё Акмаловна	

OLIV TA'LIM PROFESSOR- O'QITUVCHILARINING KASBIY RIVOJLANISHI VA QADRIYATLAR INTEGRATSIYALASHUVINING O'ZIGA XOSLIGI

A. Bozorov

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

"Pedagogika va psixologiya" kafedrası PhD, katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada zamonaviy ta'lim sharoitida pedagoglarning XXI asr ko'nikmalarini rivojlantirish, shaxsiy qadriyat yo'nalishlari va kasbiy kompetentligini shakllantirish masalalari tahlil qilinadi. Shuningdek, pedagog shaxsining shakllanishida qadriyatlar tizimi, ma'naviy meros va tarixiy mutafakkirlarning qarashlari muhim omil sifatida yoritilgan. Tadqiqotda professor-o'qituvchilarning kasbiy kamoloti, axloqiy fazilatları va zamonaviy pedagogik faoliyat samaradorligini ta'minlashda qadriyatlarıning o'rnı ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: zamonaviy ta'lim, XXI asr ko'nikmalari, pedagog shaxsi, qadriyatlar tizimi, qadriyat yo'nalishlari, kasbiy kompetentlik, ma'naviy meros, pedagogik faoliyat, kasbiy kamolot.

Abstract: This article analyzes the development of 21st-century skills among teachers in the context of modernized education, focusing on the formation of professional competence and value orientations of the teacher's personality. Special attention is given to the role of spiritual heritage and the ideas of Eastern scholars in shaping the personality of university teachers. The study highlights the importance of value systems in the professional development and effectiveness of pedagogical activity in higher education.

Key words: modern education, 21st-century skills, teacher personality, value orientations, value system, professional competence, spiritual heritage, pedagogical activity, professional development.

Аннотация: В статье рассматриваются вопросы развития навыков XXI века у педагогов в условиях модернизированного образования, формирования профессиональной компетентности и ценностных ориентаций личности. Особое внимание уделяется роли духовного наследия и идей восточных мыслителей в формировании личности преподавателя. В работе раскрывается значение системы ценностей в профессиональном развитии и эффективности педагогической деятельности преподавателей высшей школы.

Ключевые слова: современное образование, навыки XXI века, личность педагога, ценностные ориентации, система ценностей, профессиональная компетентность, духовное наследие, педагогическая деятельность, профессиональное развитие.

KIRISH

Jahonda modernizatsiyalashgan ta'lim sharoitida pedagoglarda XXI asr ko'nikmalarini rivojlantirishda zamonaviy ta'limiy yondashuvlarga ustuvorlik berilmoqda. Shuningdek, xalqaro ta'lim tajribalaridan kelib chiqib, pedagoglarda tayanch kompetensiyalari, kommunikativ qadriyatlar tizimi va kreativ ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan yondashuvlar keng qo'llanilmoqda.

Mamlakatimizda so'nggi yillarda iqtidorli yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning ichki qobiliyatlarini, tayanch kompetensiyalarini va zamonaviy ko'nikmalarini rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Buning uchun oliy ta'lim muassasalarida pedagoglardan kasbiy bilimlarni zamonaviy yondashuvlar bilan yetkazib berish talab etilmoqda. Bizga ma'lumki, yoshlarga ta'lim-tarbiya berish jarayonida davr talabidagi qadriyatlar asosida munosabatlarga kirishib, ularning ichki hayotiy qadriyatlariga mos tarzda bilimlarni yetkazib berishga harakat qilinmoqda.

Zamonaviy pedagogik jarayon o'z mazmunida ijtimoiy-madaniy hayotning ko'plab murakkabliklari va ziddiyatli holatlarini aks ettiruvchi ijtimoiy hodisadir. Ta'lim-tarbiya masalalari har doim, har bir davrda jamiyat va davlatning bosh islohotlaridan biri bo'lib kelgan. Chunki yosh avlodni tarbiyalash, barkamol inson bo'lib yetishishida ularga yo'l-yo'riq ko'rsatish hamda ularni jamiyat uchun yetuk inson qilib tarbiyalash kabi masalalar har bir ta'lim tizimi oldida turgan dolzarb vazifalardan biridir. Bundan tashqari, zamonaviy professor-o'qituvchi va



uning samarali faoliyati uchun zarur bo'lgan kasbiy kompetentlik, o'z-o'zini rivojlantirish, o'zini kamol toptirish, ichki tolerantlik, fidoiylilik, sabr-toqatlilik, o'z ustida ishlash qobiliyati, o'z-o'zini nazorat qila olish qobiliyati, boshqalarning his-tuyg'ularini tushuna olish qobiliyati, muvaffaqiyatli professor-o'qituvchiga xos psixologik xususiyatlar kabi masalalarni kasbiy kamolot tushunchasi negizida o'rganish oliy ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishga hamda o'qituvchilar faoliyati bilan bog'liq ayrim muammolarning oldini olishga xizmat qilishi ehtimoldan holi emas.

Universitet o'qituvchisi shaxsini shakllantirish murakkab va uzoq jarayondir. Bu jarayon o'qituvchining har bir faoliyat turining ko'plab tarkibiy qismlarini o'z ichiga oladi. O'qituvchining shaxs tuzilishini shakllantirishda qadriyat yo'nalishlari va qadriyatlarning o'zni haqida gapirishdan oldin tushunchalarning ta'rifini aniqlashtirish kerak. Shaxsiy qadriyat yo'nalishlari, boshqa har qanday ko'p qiymatli fanlararo ilmiy konsepsiya singari, turli mualliflarning asarlarida turlicha talqin etiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Bir qator tadqiqotlarda "shaxsiy qadriyat yo'nalishlari" tushunchasi asosan motivatsion-ehtiyoj yoki semantik sohani tavsiflovchi atamalarga to'g'ri keladi. Shunday qilib, A. Maslou aslida "qadriyatlar", "ehtiyotlar" va "motivlar", V. Frankl esa "qadriyatlar" va "shaxsiy ma'nolar" tushunchalarini ajratmaydi. Ko'pgina rus asarlarida qadriyat yo'nalishlari u yoki bu muallifning asosiy tadqiqot obyekti bo'lgan boshqa, aniqroq psixologik tushunchalar tomonidan o'zlashtirilganga o'xshaydi.

D.A. Leontiyev qadriyatlar "egoistik emas" ekanligini, ehtiyojlardan farqli o'laroq, qadriyatlar ma'lum bir lahza bilan cheklanmasligini va ichkaridan hech narsani jalb qilmasligini, balki "tashqaridan jalb qilishini" ta'kidlaydi [8].

Qadriyat yo'nalishlarini o'rganish "qadriyat" konsepsiyasi ta'rifining eng maqbul imkoniyatlarini kengaytiradi. Shaxsni nima boshqarishi haqidagi savolga javob izlashda uning o'z faoliyatida nimaga tayanishi va mehnat jarayonida qanday munosabatlarni o'rnatishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotlar tahlili asosida M.S. Yaniskiy qadriyat yo'nalishlari tushunchasining ta'rifini to'g'risida xulosa chiqaradi. Shunday qilib, qadriyat yo'nalishlari har doim ierarxik tizimni tashkil etadigan va shaxs tarkibida faqat uning elementlari sifatida mavjud bo'lgan maxsus psixologik shakllanishlardir. Insonning ma'lum bir qadriyatga yo'nalishini uning boshqa qadriyatlarga nisbatan ustuvorligi va subyektiv ahamiyatini hisobga olmaydigan, ya'ni tizimga kiritilmagan alohida shakllanish turi sifatida tasavvur qilishning iloji yo'q.

O'zbek olimlarining qadriyatlar haqida olib borgan tadqiqotlarga qo'shgan hissasi xilma-xildir, ammo qadriyatlar mavzusi ko'hna va navqiron Sharq, uning tarkibiy qismi bo'lgan Markaziy Osiyo va O'zbekiston mutafakkirlari hamda olimlari uchun ham begona emas. Qadriyatshunoslik tarixining eng teran jihatlarini faqat G'arbdan emas, balki Sharqdan qidirish ham foydadan holi bo'lmas kerak. Xorazmiy, Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Najmiddin Kubro, al-Buxoriy, at-Termiziy, Yassaviy, Ulug'bek, Jomiy, Navoiy, Mashrab, Bedil, Maxtumquli, Abay, Behbudiy, A. Avloniy kabi mutafakkir va olimlarning ijodida ham bu mavzuning izlari bor [4]. Gap ana shu izlarni izlab topishda, ularni unutmastikda, yangilab turishda hamda zamona realliklari nuqtai nazaridan xolisona talqin qilishdadir.

Quyida biz yurtimizning o'tmish madaniyatida qadriyatlar muammosi qanday ahamiyat kasb etganligi va ilm ahli tomonidan qay tariqa yoritilganligini qisqacha tahlil qilamiz. Biz uchun bunda eng asosiy maqsad tarixiy tadqiqot emas, balki masalaning qadriyatshunoslik bilan bog'liq tarzda qo'yilishi va tahlil qilinishidir.

Mamlakatimizda Xorazmiy, Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Najmiddin Kubro, Ahmad Yassaviy, Bahouddin Naqshbandiy, Ulug'bek, Navoiy, Mashrab, Bedil, Ahmad Donish, Abdulla Avloniy va boshqa mutafakkirlarning qariyb barchasi o'z davrida muayyan qadriyatlar tizimiga e'tibor berganlar, o'z munosabatlarini bildirganlar. Qadriyatlar mavzusini Abu Rayhon Beruniy ham chetlab o'tmagan. Beruniy qomusiy olim sifatida qadriyatlar tabiatini juda yaxshi o'rgangan. Ma'naviy qadriyatlarining vujudga kelishi, Beruniy fikricha, ijtimoiy munosabatlar, kishilarning yashash tarzi, moddiy ehtiyojlari, qiziqishlari, manfaatlari, talablari va maqsadlari bilan uzviy bog'langan. Beruniy inson eng asosiy qadriyatlardan biridir, tafakkur esa uni boshqa jonzotlardan ajratib turadigan ma'naviy omildir, deb hisoblagan. U ma'naviy qadriyatlar tizimini o'ziga xos tarzda ifodalaydi, ya'ni yaxshi va yomon xulqlarga ajratadi. Uning fikricha, yaxshi xulqlarga rostgo'ylik, odillik, oqillik, mardlik, botirlik va muruvvatlilik kabi qadriyat xususiyatlar, yomon xulqlarga esa yolg'onchilik, zolimlik, qalloblik, o'g'rilik, hiylagarlik, nomardlik kabi jihatlar mansubdir.

Oliy ta'lim pedagoglarining kasbiy rivojlanishida qadriyatlarining integratsiyalashuvi ta'lim sifati va samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Mavzuga oid tadqiqotlar tahlil qilinganda, qadriyatlar tushunchasiga ilmiy jihatdan keng ta'riflar berilganligiga guvoh bo'lamiz.

Qadriyatlarini o'rganishga oid falsafiy qarashlarda, sotsiologiya, tibbiyot va pedagogika fanlarida qadriyat yo'nalishlarini o'rganishga doir turli nazariyalar mavjud. Qadriyat yo'nalishi va qadriyatlar tizimining har qanday faoliyat uchun muhimligi hamda dolzarbligi ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

Xitoylik faylasuf Konfutsiy inson va jamiyat taraqqiyotining asosiy omillari ustida to'xtalib, quyidagi fikrlarni aytgan edi: "Kamolotga erishish uchun avvalo qalb pokizaligi haqida o'ylash kerak. Qalb pokizaligiga esa yurak haqiqatni izlaganda va ruh oriflikka intilgan taqdirdagina erishiladi". Imom Buxoriy "Al-adab al-mufrad" to'plamining husn-u xulq bobida: "Tarozida husn-u xulqdan ko'ra og'irroq narsa yo'qdir", deyilgan hadisni uchratish mumkin.

Tarixdan ma'lumki, dinlarda odam dunyoqarashini komillikka olib chiqish va shu ruhga yo'naltirishga xizmat qilgan muayyan tajribalar mavjud. Shu yo'sinda ma'lum odamiy xatti-harakatlarni komillikka yetkazish uchun me'yorlar va taqiqlar belgilab qo'yilgan. Ajdodlarimiz insonning komillikka erishish bosqichlari, manbalari, omillari va mexanizmlari yuzasidan keng ko'lamli mulohazalar yuritish bilan cheklanib qolmasdan, balki uning kamolotini harakatlantiruvchi obyektiv va subyektiv shart-sharoitlar hamda ilmiy-amaliy g'oyalarni yaratganlar.

Yusuf Xos Hojib ham insonga aql berib qo'yilgan, shuning uchun ham yer yuzida har qanday mushkullikni oson yenga oladi, degan fikrni bildiradi. Jaloliddin Rumiy insonni kamolotga yetkazuvchi axloqiy sifatlarni eng ko'p tarannum etgan mutafakkirlardan biridir. U insonni tadqiq etish asnosida uning tabiati va intilishlarini kuza-tadi, qalb tug'yonlarini qidirib topadi. Insonning buyukligi bilan birga, nuqsonlari, ya'ni nafs va hirs oqibatida kelib chiqadigan yovuzliklarni tahlil etib, bulardan qutilish va poklanish yo'llarini ko'rsatadi.

Avvalo shuni aytish joizki, insonning ma'naviy kamolotga erishish yo'llari, ma'rifati bo'lishi va saodatga erishishi sodda harakatlar orqali bayon etilgan. Rumiy inson kamoloti uchun kurashchi shaxs sifatida maydonga chiqib, insonni o'zligini anglashga, yomonlikdan nafratlanishga va yaxshilikdan faxrlanishga o'rgatadi. U insonlarni to'g'rilikka, soflikka yo'naltirishi va ilm olishga undashi bilan birga, ezgulik va poklikni targ'ib qilgan hamda o'zi komillikning namunasiga aylangan.

Aziziddin Nasafiy esa komil insonga quyidagicha ta'rif beradi: "Bilgilki, barkamol inson deb shariat, tariqat va haqiqatda yetuk bo'lgan odamga aytdilar. Agar bu iborani tushunmasang, boshqa ibora bilan aytayin. Bilgilki, komil inson shunday insondirki, unda quyidagi to'rt narsa kamolga yetgan bo'lsin: yaxshi so'z, yaxshi fe'l, yaxshi axloq va ma'rifat".

Mutafakkirning mazkur ta'rifidan kelib chiqadigan bo'lsak, kasbiy kamolotga erishgan professor-o'qituvchi yaxshi fazilatlarini egallab borishini tushunish mumkin. Jumladan, Abdulla Avloniy axloqni bunday ta'riflaydi: "Insonlarni yaxshilikka chaqiruvchi, yomonlikdan qaytaruvchi bir ilmdir". Ushbu fikrlarni ham alohida ta'kidlash joizdir.

Jamiyatda insonning axloqiy kamolot muammolari tor ma'noda yoki bitta millat manfaatlarini bilan bog'liq ravishda talqin etilmaydi. Balki jamiyat taraqqiyotini ta'minlash, undagi barcha muammolarni yechishning asosiy, hal etuvchi sharti sifatida talqin qilinadi. Komil axloqning mezonlari mavjud bo'lib, kishi ularni shakllan-tirib borgandagina axloqiy komillikka erishadi.

G.N. Navro'zova "Naqshbandiya kamolot yo'li" asarida inson kamoloti uchun tasavvufda o'z-o'zini idora etish yo'li, asosan, qalb tarbiyasi va uning holati masalasiga e'tibor berish kerakligini ta'kidlab o'tgan. Kasbiy rivojlanishda professor-o'qituvchilarning kasbiy kamoloti qadim-qadimdan xalq e'tiborida bo'lib kelganligi va hozirgi kunda ham ta'lim oldida turgan mas'uliyatlar ulardan har tomonlama sifat ko'rsatkichlariga ega bo'lishni talab qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda oliy ta'lim professor-o'qituvchilarining kasbiy rivojlanishida qadriyatlar integratsiyala-shuvining o'ziga xos jihatlarni aniqlashga qaratilgan ilmiy yondashuvlardan foydalanildi. Tadqiqotning metodo-logik asosini pedagogika, psixologiya, aksiologiya hamda kasbiy rivojlanish nazariyalariga oid ilmiy qarashlar tashkil etdi. Mazuni yoritishda mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy ishlari, monografiyalar, ilmiy maqolalar hamda normativ-huquqiy hujjatlar tahlil qilindi.

Tadqiqot jarayonida nazariy tahlil, qiyosiy-tahliliy yondashuv, tizimli yondashuv va umumlashtirish metod-laridan foydalanildi. Nazariy tahlil yordamida kasbiy rivojlanish va qadriyatlar integratsiyasiga oid ilmiy manbalar o'rganildi hamda mavjud nazariy qarashlar tizimlashtirildi. Qiyosiy-tahliliy metod asosida turli olimlarning qadri-yatlar, kasbiy kompetentlik va pedagogik faoliyatga doir yondashuvlari o'zaro taqqoslandi.

Shuningdek, professor-o'qituvchilarning kasbiy faoliyatida muhim o'rin tutuvchi ma'naviy-axloqiy, kasbiy va ijtimoiy qadriyatlarining integratsiyalashuv mexanizmlari tizimli tahlil qilindi. Tadqiqotda oliy ta'lim muassas-alari faoliyatiga oid ilmiy-nazariy manbalar, davlat ta'lim siyosatiga doir hujjatlar hamda pedagogik amaliyotda qo'llanilayotgan yondashuvlar o'rganildi.

Olingan ma'lumotlar kontent-tahlil va ilmiy umumlashtirish usullari asosida qayta ishlanib, professor-o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishida qadriyatlar integratsiyasining ahamiyati, uning pedagogik jarayon sama-radorligiga ta'siri hamda kasbiy kamolotga xizmat qiluvchi omillar aniqlandi. Tadqiqot natijalari asosida oliy ta'lim tizimida professor-o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishini takomillashtirishga oid ilmiy xulosalar shakllantirildi.



TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari oliy ta'lim professor-o'qituvchilarining kasbiy rivojlanishida qadriyatlar integratsiyalashuvi muhim omillardan biri ekanligini ko'rsatdi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, zamonaviy ta'lim tizimida pedagogning kasbiy kompetentligini faqat bilim va ko'nikmalar emas, balki uning ma'naviy-axloqiy qarashlari, kasbiy qadriyatlari ham belgilab beradi. Kasbiy faoliyatda mas'uliyat, halollik, adolat, insonparvarlik, fidoyilik va innovatsion fikrlash kabi qadriyatlarning ustuvorligi pedagogik faoliyat samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Nazariy manbalar tahlili asosida professor-o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishida qadriyatlar integratsiyalashuvining uchta asosiy yo'nalishi aniqlandi. Birinchi yo'nalish ma'naviy-axloqiy qadriyatlar bilan bog'liq bo'lib, bunda pedagogning kasbiy burchga sadoqati, ta'lim jarayonidagi mas'uliyati va o'z faoliyatiga nisbatan ongli munosabati muhim ahamiyat kasb etadi. Ikkinchi yo'nalish kasbiy qadriyatlarni qamrab olib, pedagogning o'z ustida ishlashi, malakasini muntazam oshirishi, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni o'zlashtirishi va innovatsion faoliyatga tayyorligini ifodalaydi. Uchinchi yo'nalish esa ijtimoiy qadriyatlar bilan bog'liq bo'lib, hamkasblar, talabalar va jamiyat bilan samarali muloqot qilish, tolerantlik va hamkorlik madaniyatini rivojlantirishni nazarda tutadi.

Tahlillar natijasida qadriyatlar integratsiyasining professor-o'qituvchilarning kasbiy faoliyatiga ijobiy ta'siri aniqlandi. Xususan, kasbiy qadriyatlarni o'z faoliyatiga singdirgan pedagoglarda ta'lim sifati, talabalar bilan samarali kommunikatsiya va pedagogik motivatsiya darajasining yuqori bo'lishi kuzatildi. Shuningdek, qadriyatlar asosida faoliyat yurituvchi pedagoglarning kasbiy moslashuvchanligi, o'z-o'zini rivojlantirishga intilishi va ta'lim jarayonida yuzaga keladigan muammolarni samarali hal etish qobiliyati yuqoriroq ekanligi aniqlandi.

Tadqiqot davomida professor-o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishida ayrim muammolar ham mavjudligi kuzatildi. Jumladan, qadriyatlar va kasbiy faoliyat o'rtasidagi uyg'unlikning yetarli darajada shakllanmaganligi, zamonaviy pedagogik yondashuvlarni qadriyatlar bilan integratsiyalash bo'yicha metodik tavsiyalarning kamligi hamda ayrim pedagoglarda kasbiy o'zini rivojlantirish motivatsiyasining sustligi aniqlangan muammolar qatoridan o'rin oldi.

Olingan natijalar oliy ta'lim tizimida professor-o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishini ta'minlashda qadriyatlar integratsiyasiga alohida e'tibor qaratish zarurligini ko'rsatadi. Qadriyatlar asosida tashkil etilgan kasbiy rivojlanish modeli pedagoglarning nafaqat kasbiy kompetentligini, balki ularning ma'naviy yetukligi va pedagogik madaniyatini ham rivojlantirishga xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, oliy ta'lim professor-o'qituvchilarining kasbiy rivojlanishida qadriyatlar integratsiyalashuvi muhim pedagogik omillardan biri hisoblanadi. Kasbiy faoliyatda ma'naviy-axloqiy, kasbiy va ijtimoiy qadriyatlarning uyg'unlashuvi pedagoglarning kasbiy kompetentligini oshirish, ta'lim sifati va samaradorligini ta'minlash hamda zamonaviy ta'lim talablariga mos faoliyat yuritishida muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot davomida qadriyatlar integratsiyasi professor-o'qituvchilarning kasbiy motivatsiyasi, o'z-o'zini rivojlantirishga intilishi, pedagogik madaniyati va innovatsion faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi aniqlandi.

Shuningdek, oliy ta'lim muassasalarida qadriyatlar va kasbiy rivojlanish o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni mustahkamlash pedagoglarning kasbiy kamolotini ta'minlash bilan birga, talabalarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatishi asoslandi. Tadqiqot natijalari asosida professor-o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishida qadriyatlar integratsiyasini takomillashtirish zarurligi ilmiy jihatdan asoslab berildi.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, quyidagi takliflar ilgari suriladi:

1. Oliy ta'lim muassasalarida professor-o'qituvchilarning kasbiy rivojlanish dasturlariga qadriyatlar integratsiyasiga oid maxsus modullarni kiritish maqsadga muvofiq.
2. Pedagoglarning ma'naviy-axloqiy va kasbiy qadriyatlarini rivojlantirishga qaratilgan malaka oshirish kurslari va seminar-treninglar tizimini takomillashtirish lozim.
3. Ta'lim jarayonida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan uyg'unlashtirishga yo'naltirilgan metodik tavsiyalar ishlab chiqish zarur.
4. Professor-o'qituvchilarning kasbiy faoliyatida o'z-o'zini rivojlantirish, refleksiya va innovatsion yondashuvlarni qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini kengaytirish tavsiya etiladi.
5. Qadriyatlar integratsiyasining ta'lim sifati va pedagogik samaradorlikka ta'sirini aniqlashga qaratilgan empirik tadqiqotlarni kengaytirish maqsadga muvofiq.

Xulosa qilib aytganda, professor-o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishida qadriyatlar integratsiyasini ta'minlash zamonaviy oliy ta'limning muhim shartlaridan biri bo'lib, u pedagoglarning kasbiy yetukligi, ta'lim sifati va jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiluvchi barkamol mutaxassislarni tayyorlashda muhim omil sifatida namoyon bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2017-yil 19-sentabr kuni BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so'zlagan nutqi // Xalq so'zi gazetasi 20-sentabr, 2017-yil.
2. Абульханова - Славская К.А. Стратегии жизни. - М.: Мысль, 1991. -299 с.
3. Абульханова К.А. Психология и сознание личности: избранные психологические труды. М.: Московский психолого-социальный институт; Воронеж: Издательство НПО "МОДЭК", 1999. - 224 с.
4. Avloniy A. Turkiy guliston yoki axloq. -T.: Yoshlar nashriyot uyi, 2018. - 97 b.
5. Адлер А. Очерки по индивидуальной психологии. М.: Когито-центр, 2002. -220 с.
6. Karimova V.M. Yoshlarda o'zbek oilasi to'g'risidagi ijtimoiy tasavvurlar: Dis.-T., 1994. - 258 b.
7. Qahhorova M. Vorislik - xulq-odob qadriyatlarini shakllantirishning muhim omili. Falsafa fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. -T.: O'zMU, 2000. -135 b.
8. Леонтев Д.А. Мировоззрение как миф и мировоззрение как деятельность // Менталитет и коммуникативная среда в транзитивном обществе. Томск: Томский государственный университет, 2004. С. 24-31.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №6(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.